

## **BOLALAR ONGI VA MA’NAVIYATIGA TA’SIR ETUVCHI MULTIMEDIA MUHITI: SUN’IY INTELLEKT VA MILLIY KONTENT TAHLILI**

(Ijtimoiy-ma’naviy tahlil, axloqiy xavflar va SI texnologiyalari imkoniyati asosida)



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2025-24-64-70>

**Yuldasheva Maxfuzaxon Qobiljonovna**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
siyosiy fanlari bo’yicha falsafa doktori,  
Falsafa kafedrası dotsenti.  
(93)0000-383

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada zamonaviy bolalar ongiga ta’sir ko’rsatayotgan multimedia muhiti, ayniqsa, sun’iy intellekt (SI) vositasida yaratilayotgan va tarqalayotgan kontentning ijtimoiy-ma’naviy ahamiyati tahlil etiladi. Milliy g’oyalar, axloqiy qadriyatlar va bolalar ruhiy salomatligini asrash nuqtai nazaridan xalqaro va mahalliy multfilm va o’yin kontentlari solishtiriladi. Maqolada sun’iy intellekt (SI) imkoniyatlari, bolalar ongi, milliy kontent va axloqiy xavflar tahlil qilinadi. Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda ehtiyot choralarini ko’rish, nazorat tizimlarini yaratish va milliy qadriyatlar asosida kontent ishlab chiqish bo’yicha taklif va tavsiyalar beriladi.*

***Kalit so’zlar:** bolalar ongi, sun’iy intellekt, axloqiy tahdid, multimedia, milliy kontent, raqamli muhit, ma’naviy xavfsizlik*

## **МУЛЬТИМЕДИЙНАЯ СРЕДА ВЛИЯЕТ НА РАЗУМ И ДУХОВНОСТЬ ДЕТЕЙ: ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И АНАЛИЗ НАЦИОНАЛЬНОГО КОНТЕНТА**

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье рассматривается влияние современной мультимедийной среды на сознание детей, особенно через контент, создаваемый и распространяемый с использованием технологий искусственного интеллекта (ИИ). Сравниваются международные и локальные мультфильмы и игровые продукты с точки зрения национальной идеи, нравственных ценностей и психического здоровья детей. Авторы предлагают конкретные рекомендации по созданию эффективных*

механизмов контроля, а также по разработке безопасного и полезного контента на основе национальных традиций и культуры.

**Ключевые слова:** сознание детей, искусственный интеллект, нравственные угрозы, мультимедиа, национальный контент, цифровая среда, духовная безопасность

## MULTIMEDIA ENVIRONMENT INFLUENCES CHILDREN'S MIND AND SPIRITUALITY: ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND NATIONAL CONTENT ANALYSIS

### ABSTRACT

*This article examines the influence of the modern multimedia environment on children's minds, with a particular focus on content created and distributed through artificial intelligence (AI) technologies. It analyzes both international and local cartoons and gaming content in terms of national values, ethical standards, and children's mental health. The paper offers recommendations for the responsible use of AI, implementation of monitoring systems, and development of safe and culturally rooted national content.*

**Keywords:** children's consciousness, artificial intelligence, ethical threats, multimedia, national content, digital environment, spiritual security

**Kirish:** XI-asr axborot va sun'iy intellekt asri sifatida bolalar tarbiyasiga yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Bugungi kunda bolalar multfilmlar, internet, ijtimoiy tarmoqlar va SI asosidagi kontentlar orqali tarbiya olayotganini hisobga olgan holda, bu muhitning ijobiy va salbiy jihatlarini chuqur tahlil qilish dolzarb ahamiyatga ega. Sun'iy intellekt bu — ilgari faqat inson aqliy salohiyati yordamida amalga oshirilgan vazifalarni bajara oladigan mashina qobiliyatini ifodalaydigan konsepsiya.

**I. Bolalar ongiga ta'sir etuvchi omillar:** 2–12 yoshda bola ongi sezgir va shakllanishda bo'ladi.

- Vizual, audio, emotsional kontentlar orqali dunyoqarashi tez shakllanadi.
- Multfilm va media mahsulotlar — eng kuchli tarbiyaviy vositaga aylanmoqda

### II. Qozog'iston tajribasi va multfilmlar mazmuni tahlili:

“Krokodil Gena”, “Cheburashka”, “Vinni Pux” kabi multfilmlarda:

- Zo'ravonlik va o'z bilganini qilish targ'ib qilinadi.
- Normativ tarbiya va odob-axloq mezonlariga zid syujetlar bor.
- Bolalar psixologiyasiga noqonuniy, xayolparst, beaniqlikni kiritadi.

Qozog‘istonning rad etishi – milliy tarbiyani himoya qilish aktidir.

### **III. Sun'iy intellekt imkoniyatlari va xavflari:** Foydali jihatlar:

- SI asosida bolalar yoshi, qiziqishi va o‘zlashtirish darajasiga mos kontent yaratish mumkin.
- Interaktiv o‘rgatuvchi multfilmlar, axloqiy o‘yinlar va simulyatorlar tayyorlanishi mumkin.
- Milliy qahramonlar va xalq ertaklari asosida intellektual vizual platformalar yaratiladi.

**Xavfli jihatlar:** SI orqali feyk multfilmlar, madaniy degradatsiyaga olib keluvchi kontentlar avtomatik ishlab chiqilishi mumkin.

- Axloqiy filtrsiz algoritmlar bolalarni behayo, beodob, zo‘ravonlikka asoslangan materiallar bilan ta‘minlashi mumkin.
- Tahlilsiz va nazoratsiz ishlatilsa, SI — axborot iflosiga xizmat qiluvchi qurolga aylanishi mumkin.

Sun'iy intellekt – yutuqmi yoki tahdid? Ba‘zi mutaxassislar aqliy qobiliyatni moslashish, muammolarni yechish, rejalashtirish, yangi vaziyatlarda ijod qilish va yangi narsalarni o‘rganish qobiliyati sifatida ta‘riflaydi. Bu tizimlar inson aqli yoki ijtimoiy muloqotning o‘rnini bosa olmasa-da, bugungi sun'iy intellekt inson aqlida mavjud bo‘lgan ayrim xususiyatlarni namoyon etmoqda. Bularga o‘rganish, muammolarni hal qilish, qonuniyatlarni aniqlash, idrok etish va hatto cheklangan darajada bo‘lsa-da, ijodkorlik hamda ijtimoiy onglik kabi xususiyatlar kiradi.

“Aqlni o‘rgatish uchun sun'iy aqlni yaratyapmiz – bu insoniyat taraqqiyotining cho‘qqisimi yoki inqirozining boshlanishimi?”

### **Yutuqlar: Sun'iy intellektdan insoniyat nima yutmoqda?**

#### **A) Fan va tibbiyotda inqilobiy yutuqlar**

- Sun'iy intellekt yordamida saraton, yurak xastaligi, nevrologik kasalliklar tezroq aniqlanmoqda.
- Tibbiy sun'iy intellekt bemorning holatini oldindan bashorat qilib, hayotni saqlab qolmoqda (masalan, IBM Watson Health, DeepMind Health).

**Ta'limda teng imkoniyatlar** Sun'iy intellekt yordamida shaxsiylashtirilgan ta'lim (adaptive learning) kengaymoqda.

- Yoshlar onlayn o‘quv kurslari, “intellektual murabbiylar” orqali o‘zlari mustaqil o‘rganmoqda.
- Nogironligi bo‘lganlar uchun inklyuziv o‘quv imkoniyatlari ochilmoqda.

#### **C) Mehnat unumdorligi oshmoqda**

- Avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida sanoat, logistika, qishloq xo‘jaligida unumdorlik oshmoqda.

- Oddiy ishlar avtomatlashtirilgani sabab, insonlar yaratuvchanlik, tahlil va boshqaruv kabi yuksak darajadagi vazifalarga yo‘naltirilmoqda.

D) Raqamli boshqaruv

- SI orqali ochiqlik, shaffoflik, korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytirish mumkin (raqamli davlat, e-hukumat).

#### **IV. Milliy SI-kontent yaratish zaruriyati:**

Milliy tarbiya tamoyillariga asoslangan SI platformalar:

- “Odobli bola”, “Sevimli ertaklar”, “Qahramonim – bobom” kabi interaktiv dasturlar.

- Bolalar yoshiga qarab avtomatik filtrlaydigan intellektual kontent tanlovi.

- Vatanparvarlik, oila qadriyati, tinchlik va mehr-oqibat mavzulari asosiy liniya bo‘lishi shart.

#### **V. Taxlil xulosalar va takliflar:**

Milliy SI-kontentlar ishlab chiqarish bo‘yicha maxsus davlat dasturi qabul qilinishi lozim.

Yoshga muvofiq SI filtr tizimlari va bolalar kontenti monitoringi yo‘lga qo‘yilishi zarur.

Axborot xurujlariga qarshi ma‘naviy immunitet yaratish SI vositasi orqali ham amalga oshirilishi kerak.

Ota-onalar va o‘qituvchilar uchun “Media savodxonlik va SI bilan tarbiya” kurslari tashkil etilishi kerak.

O‘zbekistonda SI texnologiyalari va bolalar tarbiyasi: mavjud holat va istiqbollari

#### **Ma’lumotlilik va nazorat darajasi:**

- Ota-onalar va o‘qituvchilarning SI texnologiyalaridan foydalanishdagi axborot savodxonligi past.

- Bolalar internetda nazoratsiz kontentdan foydalanmoqda, ko‘p hollarda bu SI tomonidan tavsiya qilinadigan video, multfilmlar va o‘yinlardir.

- Ba’zi atakachi algoritmlar esa bola qiziqishlaridan kelib chiqib, harakatga undavchi (influencing) kontentlarni taqdim etmoqda (shu jumladan, zo‘ravonlik, mulohazasiz erkinlik, begona madaniyatlar).

**Ma’naviy xavflar:** Milliy qadriyatlarga zid kontentlar SI tizimi orqali tarqalmoqda (bexayollik, qattiq individualizm, turmush standartlari eksporti).

“Yutub Kids”, “TikTok”, “AI multfilm to‘plamlari” orqali bolalarga asossiz taqlidchi qahramonlar, komikslar va axloqiy bema’niliklar targ‘ibot qilinmoqda.

Ba’zi kontentlarda bola ongida an’anaviy oilaviy modelga qarshi fikrlar shakllanadi. Masalan, ota-ona muhabbati o‘rniga gadjetga bog‘liqlik shakllanadi.

Tahliliy SI vositalari orqali ijtimoiy muammolar yechimlari tezroq aniqlanmoqda.

**Tahdidlar: Sun'iy intellekt nimasi bilan xavfli bo'lishi mumkin?**

A) Ish o'rinlarining yo'qolishi

- Sun'iy intellekt ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, moliya, hatto huquq kabi sohalarida odamlarni almashtirmoqda.

- Dunyo banki hisobotiga ko'ra, 2025–2030 yillarda millionlab ishchilar robotlar bilan almashtirilishi mumkin.

B) Kuzatuv jamiyati va shaxsiy hayotning yo'qolishi

- SI texnologiyalari orqali odamlar doimiy nazorat ostida bo'ladi (yuzni tanish, joylashuvni aniqlash, ovoz tahlili).

- Bu esa inson erkinligi, maxfiyligi va demokratik qadriyatlarga tahdid tug'diradi.

C) Onni nazorat qilish: Algoritmik manipulyatsiya

- SI asosidagi algoritmlar odamlar ongini manipulyatsiya qilish, fikrini shakllantirish, tanloviga ta'sir qilish imkoniyatiga ega.

- “Fake news”, siyosiy reklama, ijtimoiy tarmoqlardagi sun'iy yetakchilar – bularning barchasi SI tomonidan boshqarilishi mumkin.

D) Bolalar va o'smirlar uchun ahloqiy xavf

- SI yordamida ishlab chiqilgan kontentlar (multfilmlar, o'yinlar, video) ko'pincha ahloqiy mezonlardan yiroq.

- Milliy, ma'naviy qadriyatlarga zid g'oyalar SI asosidagi algoritmlar orqali bolalarga oddiy va qiziqarli shaklda singdiriladi.

- Oila va jamiyat modeli o'zgarishga uchraydi.

Qanday muvozanat topish mumkin? SI – vosita, boshqaruvchi esa odam bo'lishi kerak:

- Har qanday sun'iy intellekt tizimi inson qadriyati, ahloqi va javobgarligi asosida ishlab chiqilishi shart.

- Buni “axloqiy SI” (ethical AI) deb atashadi.

Qonunchilik va nazorat zarur:

- Bolalar, o'smirlar, ta'lim tizimi uchun maxsus SI kontent standartlari ishlab chiqilishi zarur.

- SI bilan bog'liq qonunlar, mas'uliyat tizimi va nazorat mexanizmlari ishlab chiqilishi kerak.

**O'zbekistondagi qadamlar:** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023–2024 yillardagi qarorlarida SI sohasida milliy kadrlar tayyorlash, ta'limga joriy etish va himoya mexanizmlarini kuchaytirishga alohida e'tibor berildi.

“Bolalarni zararli axborotlardan himoya qilish to‘g‘risidagi” qonun loyihalari ishlanmoqda.

Yangi dasturlar (AI-uz, EduAI, Milliy Content Hub) ishlab chiqilmoqda, ammo hozircha bolalar uchun maxsus SI filtrlangan kontent kam.

**Psixologik ta’siri:**

5–12 yoshda SI orqali taqdim etilgan kontentlar bolalar ongida dunyoni noto‘g‘ri qabul qilish, tez asabiylashish, ijtimoiycha passivlashish, virtual dunyoga qaramlik kabi simptomlar keltirib chiqarishi mumkin.

“Feyk reallik” ta’siri: bola qanday voqea haqiqiy, qaysi fantaziya ekanini ajrata olmaydi.

Psixologlar ogohlantiradi: SI-kontent bola ongida sukunatsizlik, ishonchsizlik, o‘zligini yo‘qotish kabi uzoq muddatli muammolarni keltirib chiqaradi.

**Ta’lim tizimida SI ni ma’naviy tarbiya vositasi sifatida ishlatish takliflari:**

Filtrlangan SI multfilm platformasi:

– Vatanparvarlik, oila, milliy faxr mavzusida bolalar uchun qahramonlar yaratish.

– Masalan, “Alouddinning zakovatli safari”, “Mehrli opa”, “Erkatoy va dolchin” kabi SI multfilmlar.

– AI yordamida axloqiy simulyatsiya o‘yinlar:

– Qahramonning tanlovlari natijasiga qarab axloqiy saboq berish.

– “Sening tanloving – sening kelajaging” kabi o‘yin modellari.

**Ma’rifatli chat-botlar:**

– Bola savoliga hadislar, ertaklar, ibratli hikoyalar orqali javob beradigan AI chat-botlar.

AI-saralangan kitobxonlik platformalari:

– Yoshga mos milliy ertaklar va hikoyalar tavsiya qiladigan tizim.

**XULOSA VA TAKLIFLAR:**

• Bolalar SI muhitida ma’naviy kompassiz qolmasligi kerak.

• Milliy SI kontent platformalariga ma’naviy ekspertlar, psixologlar va tarbiyachilar jalb qilinishi shart.

• Axborot siyosatida bolalar ma’naviy xavfsizligi alohida strategik yo‘nalish sifatida belgilanishi lozim.

Milliy SI kontentlarini yaratish: Vatanparvarlik, halollik, oilaparvarlik, mehnatsevarlik g‘oyalari asosida o‘zbekcha SI animatsiya, chatbot, o‘yin va platformalar yaratilishi zarur.

• Mahalliy pedagoglar, yozuvchilar, psixologlar SI ishlab chiquvchilar bilan birgalikda ishlashi kerak.

Sun'iy intellekt – insoniyat aqlining sinovidir. Aqlimiz orqali yaratilgan kuch — sun'iy intellekt — agar axloq, ma'naviyat, va nazorat bilan boshqarilsa, u yutuqdir. Bugungi bola — ertangi yetakchi. Uning ongi, aqli va qalbiga qanday kontent singdirilsa, ertangi millat shunday bo'ladi. Sun'iy intellektdan foydalanish — mas'uliyat va ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilishi kerak. Aks holda, u madaniy mustamlakachilik quroliga aylanishi mumkin. Ammo nazoratdan chiqsa, insoniyatga emas, insoniyat ustiga ishlashi mumkin. Shu sabab, har bir millat, ayniqsa yosh avlodni tarbiyalashda SI vositalari ustidan milliy va ijtimoiy nazorat zarur.

### REFERENCES

1. <https://kun.uz/news/2025/05/20/...>
2. UNESCO. “Children and AI: Opportunities and Risks” (2023)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ma'ruzasi — 20 may, 2025
4. Yunusova N. “Bolalar tarbiyasida axloqiy omillar”, Toshkent, 2022
5. AI Ethics Reports for Digital Literacy, UNICEF (2024)